



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

## SHARQ MUTAFAKKIR-ALLOMALARI SHAXS MADANIY-MA'NAVIY EHTIYOJLARINI SHAKLLANTIRISH TO'G'RISIDA

**Munisa Mavru洛va**

Dotsent, PhD,

O'zbekiston Davlat san'at va madabiyat instituti  
Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Sharq, mutafakkir, alloma, madaniyat, ma'naviyat, ehtiyoj, ma'rifatlari, jamiyat, taraqqiyot, ma'naviy makon, shaxs, ijtimoiy, faoliyat, tarbiya, xalq, g'oya, ta'lilot.

**Annotatsiya:** Yangi O'zbekistonni barpo etish, ma'rifatlari davlatni qurish konsepsiyasining muhim jihatlaridan biri shaxs madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirish masalasiadir. Bu borada o'rta asr Sharq allomalarini tomonidan jiddiy izlanishlar olib borilgan. Maqolada ana shu masalalar, shuningdek, mamlakatda yangi ma'naviy makonni qurishda allomalarimiz tomonidan qoldirilgan buyuk merosning bugungi kun uchun nechog'liq muhim ehtiyojga aylanganligi haqida fikrlashiladi.

### EASTERN THINKERS ON THE FORMATION OF THE CULTURAL AND SPIRITUAL NEEDS OF THE PERSON

**Munisa Mavru洛va**

Associate Professor, PhD,

Uzbek State Institute of Arts and Literature  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** East, great figure, culture, spirituality, need, educational community, development, spiritual society, personality, social activity, education, people, idea, teaching.

**Abstract:** One of the main aspects of the construction of New Uzbekistan, the concept of building an educational state, is the formation and satisfaction of the cultural and spiritual needs of the individual. Serious scientific research was carried out in this direction by the great Eastern scientists in the Middle Ages. This article analyzes the significance and necessity of that great scientific heritage of our ancestors in the construction of a new spiritual society in modern conditions.

## ВОСТОЧНЫЕ МЫСЛИТЕЛИ И УЧЕНЫЕ О ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРНО-ДУХОВНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ

**Муниса Маврулова**

Доцент, доктор наук,

Узбекский государственный институт искусств и литературы

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:**

Восток, великий деятель, культура, духовность, потребность, просветительское сообщество, развитие, духовный социум, личность, социальная деятельность, воспитание, народ, идея, учение.

**Аннотация:** Одним из основных аспектов строительства Нового Узбекистана, концепции возведения просветительского государства является сформирование и удовлетворение культурно-духовных потребностей личности. В данном направлении были осуществлены серьёзные научные изыскания великими Восточными учёными в средние века. В данной статье анализируются значение и необходимость той великой научной наследии наших предков в возведении нового духовного социума в современных условиях.

### KIRISH

Insonning mohiyati uning erkinlikka va doimiy ravishda o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan intilishida namoyon bo‘ladi. Har bir shaxsning ilm egallashi, mehnat qilishi, o‘zida ma’naviy jihatdan yetuk odam sifatlarini shakllantirishga bo‘lgan qiziqish va talablari uni muntazam ravishda harakatga undaydi.

Bularning barobarida shaxs mukammalligi har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan omiliga aylanadi. Mazkur holat jahon tarixi, ma’rifatli dunyoning ming yillar davomida shakllangan qiyoqasini belgilab beradi. Umuman, ma’rifatli dunyoning asosiy belgisi, xususiyatli jihat shaxs intellekti, yuksak ma’naviy olami, ushbu jamiyatning ijtimoiy axloqi bilan xarakterlanadi.

Biroq, keyingi paytlarda shaxs ma’naviy olamini shakllantirish, jamiyat ijtimoiy axloqi me’yorlarini takomillashtirishga murakkab ichki va tashqi sabablar o‘z ta’sirini o’tkazmoqda. “Hammamizga ayonki, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – bugungni kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda. Jahonda manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jaryonlari bashariyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga, kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar kuchaymoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo’llar bilan aholi, ayniqsa, hali “oq-qora”ni farqlay olmaydigan yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber jinoyatchilik, odam savdosi,

narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda” (Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. – Toshkent, “Tasvir”, 2021.7-bet).

Darhaqiqat, bunday tahdidlar kun sayin ko‘payib bormoqda. Ana shunday vaziyatda xalqimizni eson-omon saqlash, milliy o‘zlikni anglash jarayonini yanada kuchaytirish, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minalashning eng muhim yo’llaridan biri – bu kishilarda, ayniqsa, yoshlarda ma’naviy-madaniy ehtiyojlarni shakllantirish va qondirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Shu o‘rinda, eng avvalo, ehtiyoj, ma’naviyat, ma’naviy-madaniy ehtiyoj kabi atamalar mazmun-mohiyatini tushunib olishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz. “Ehtiyoj” so‘zi muxtojlik, zaruriyat, talab, hojat kabi ma’nolarni beradi (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-tom. –Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020. 69-bet).

Ehtiyoj atamasi ijtimoiy-gumanitar fanlarning barchasida alohida tadqiq etish obyekti hisoblanadi. Chunki, mazkur tushuncha har bir fanning kelib chiqishi, shakllanishi, evolutsiyasi haqida eng ishonarli, ilmiy jihatdan asoslangan xulosa chiqarishga imkon beradi.

Ehtiyoj tushunchasining kelib chiqish tarixi juda qadimiy. Qadimgi Sharq, xususan, mamlakatimiz hududida ilm-fanning rivojlanishi, turli tamaddunlarning paydo bo‘lishi, yuksak ma’naviy-ma’rifiy ta’limotlarning yuzaga kelishi ehtiyojlar mahsulidir. Ma’lumki, zardushtiylik dinining milliy va umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy qoidalari “Avesto”da bayon etilgan.

Qadimda odamlarning tabiat kuchlari oldidagi ojizligi, ijtimoiy birlikning mavjud emasligi, qabilaviy urushlar natijasida tinimsiz qon to‘kishlar, ommaviy axloqsizliklar – bularning bari insoniyatdan muayyan qadriyatlarga e’tiqod qilishni talab qila boshladи. Ana shu e’tiqod esa ehtiyoj tufayli sodir bo‘ldi.

Zardushtiylik diniga e’tiqod – ixlos qilgan ajdodlarimiz inson hayoti-yu tirikchiliginining asosiy manbayi bo‘lgan ona Zaminni, uning har bir siqim tuprog‘ini zo‘r mehr-muhabbatda e’zozlaganlar, uning noplari bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaganlar. Ajdodlarimiz butun vujudlari bilan ona zaminga, olovga, tuproqqa, suvgaga ta’zim qilganlar. Bitmas-tugunmas javohirlar koni, jamiki noz-ne’matlar xazinasi hisoblangan zaminni, egnimizni but, qornimizni to‘q qiladigan yerni, tuproqni muqaddas bilib ardoqlashgan, qadriga yetishgan, e’zozlashgan. Bularning bari insoniyatning yuksak darajada yashashga, intilishiga quvvat bergen ehtiyoj natijasida yuzaga kelgan.

Qadimdan odamlar o‘z taraqqiyot yo‘lini moddiy farovonlikda, ma’naviy komillikda, jamoat bo‘lib yashashda ko‘rganlar. Bu, shubhasiz, ijtimoiy ehtiyojlarning yuzaga kelishiga olib kelgan. Abu Nasr Forobi bu haqda quyidagilarni yozadi: “Har bir inson o‘z tabiatini bilan

shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi.

Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi insonlarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiatini bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydi va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdi, natijada inson jamoasi vujudga keldi”. (Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –Toshkent, “Yangi asr avlod”, 2016. 286-bet).

Mutafakkir bobomiz Abu Nasr Forobi o‘zining “Falsafatu Arastutolis” asarida Arastu inson ma’naviy ehtiyojlarini ezgulik tamoyili bilan bog‘lab o‘rganganligini ta’kidlaydi. Ta’kidlanishicha, Arastu odamlarning orzu qiladigan barcha boshqa istaklaridan ustun turuvchi ezgulik deb biladigan va intiladigan maqsadlari to‘rtta, deb tushuntiradi. Bular: tan sog‘lomligi, tuyg‘ular (a‘zolarining) sog‘lomligi, turli narsalarni idrok etishga bo‘lgan qobiliyat sog‘lomligi (bu qobiliyat borligi uchun ana shu sog‘lomlik ham bo‘ladi), intilishga bo‘lgan qobiliyat sog‘lomligi (bu qobiliyat borligi uchun ana shu sog‘lomlik ham bo‘ladi) (Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. 68-bet).

Bugun O‘zbekiston o‘z oldiga demokratik, suveren, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat barpo etishni maqsad qilib qo‘ygan. Ushbu ulkan maqsadlarga erishishning eng muhim omili ham ijtimoiylashgan jamiyatni qurishdan iboratdir. Ochiq, demokratik jamiyatda insonning o‘z iste’dodlarini namoyish eta olish ko‘nikmasining paydo bo‘lishi, ularning ijtimoiylashuvi, shu jamiyat tomonidan qabul qilingan turli me’yoriy hujjatlarda aks etgan talablarga javob berish, ijtimoiy qadriyatlarga amal qilish, jamiyat va davlatdan begonalashuv holatidan qutulish jarayonlari har bir shaxsda ma’naviy ehtiyojlarga ustuvor ahamiyat berishni talab qiladi. Bu esa ma’naviy ehtiyojlarning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Mazkur masalaga Sharq allomalari alohida e’tibor berishgan. “Har bir inson, – deydi Abu Nasr Forobi, – tabiatiga ko‘ra o‘z ehtiyojlarini qondirish va kamol topishi uchun juda ko‘p narsalarga (kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kitoblar, ustozlarga, do‘stlarga) ehtiyoji bor. Inson barcha zarur narsalarni bir o‘zi hosil qila olmaydi, bularni topish uchun u turli kasbdagi odamlarning xizmatiga muhtojlik sezadi. Boshqa insonlar ham shunday holatda bo‘ladilar. Insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish va kamol topish uchun jamoaga va jamiyatga birlashuvlari zarur bo‘ladi. Bu jamoada har bir shaxs o‘z tabiatiga, iste’dodi va qobiliyatiga yarasha kasb-hunarlarini o‘rganib, har kun o‘z san’atida (hunarida) kamolotga yetishga harakat qiladi. Shu

sababli (turli millat va turli dinga mansub) turli joylarda yashovchi odamlar turli jamiyatlarga birlashadilar” (Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. 238-bet).

Abu Ali ibn Sino ma’naviy ehtiyojlarni insonning go‘zallikka bo‘lgan intilishi bilan bog‘laydi. Uning ta’kidlashicha, go‘zallikka erishish vositasi muhabbatdir, kamol topish esa uning nafsi tarbiyalash orqali yuzaga chiqadi. Bu g‘oyalar Ibn Sinoning “Risolayi fil ishq” asarida bayon qilingan bo‘lib, u olamning paydo bo‘lishini, unda hodisalararo uyg‘unlik va sabab-oqibat bog‘lanishlarining mavjudligini Sababi Avvalning (Alloh taolonning) tajalliyoti (olam hodisalarida namoyon bo‘lishi), koinotdagi ilohiy tartibot va universal uyg‘unlikning Yer yuzidagi ifodasi sifatida qaraydi. Olamdagи barcha narsalar o‘zining mohiyatiga ko‘ra mukammallikka intiladi, bu intilish esa Xayri Mutloq (Xudo)ning zotidan kelib chiqqan bir quvvat ekanligi ta’kidlanadi. (M. Jakbarov komil inson g‘oyasining tarixiy-falsafiy negizlari. – Toshkent, “Tafakkur”, 2011. 194-bet).

Darhaqiqat, ma’naviy ehtiyojlar insonning o‘z mukammalligiga bo‘lgan ehtiyoji tufayli shakllanadigan ijtimoiy hodisadir. Mukammallik deganda mutafakkir-allomalarimiz, eng avvalo, inson tarbiyasi, uning jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarga amal qilishi, tartib-qoidalarni hurmat qilishi kabi jarayonlarni e’tiborga olishgan. Ibn Sino ma’naviy qadriyatlarning boshqa ne’matlardan ustuvorligini tasdiqlab, kishi qalbini buzuvchi boylikka va oltin-kumushga hirs qo‘yishni, turli shahvoniy lazzatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini insonning ma’naviy kamoloti yo‘lidagi to‘silalar, deb hisoblaydi.

Abu Rayhon Beruniy esa ma’naviy ehtiyojlarini jamiyatning paydo bo‘lishi, unda odamlarning o‘zaro hamkorlikda yashashga bo‘lgan intilishlari bilan uyg‘unlikda ko‘radi. Shu nuqtayi nazardan Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi sababini ongli mavjudotlarning bir-birlari bilan birgalikda yashashga bo‘lgan tabiiy ehtiyojlaridandir, deb tushuntiradi. Chunki, kishilar o‘zlarining ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, tabiat kuchlari bilan kurashda o‘zlarini saqlab qolish uchun jamoa bo‘lib yashashga muhtoj edilar. Shuning uchun Beruniy kishilarning uyushma (to‘da) bo‘lib yashashlari, o‘zaro hamkorlikka va bir-birlariga yordam berishga intilishlarini tabiiy, qonuniy jarayon, deb qaraydi.

Kishilarning ehtiyojlar xilma-xilligi va turlarining ko‘pligi bilan odatdagi hayvonlarning ehtiyojlaridan farqlanadi. Bir kishi o‘zining barcha ehtiyojlarini yakka holda qondirishga qodir emas. “Shuning uchun, – deb yozadi Beruniy, – odam yana bir qancha kishilarning hamkorligiga muhtojdir. Ehtiyojlarining xilma-xilligi va turlarining ko‘pligi, ularni qondirish uchun bir qancha odamlarning uyushma (to‘da) bo‘lishi kerak. Shu sababdan odamlar shaharlarni ta’sis etish zarurati tug‘ilgan edi”. (Бируни. Минерология: собрание сведений для познания драгоценностей. – М: «Наука», 1963. 11- стр.).

Shu o‘rinda yana bir muhim masalaga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Gap shundan iboratki, har doim ham ehtiyojlar, jumladan, ma’naviy ehtiyojlarning soni ularni qondirishning yo‘llari, vositalardan ko‘proq bo‘ladi. Bunday hol esa, shubhasiz, jamiyatda muayyan ijtimoiy kelishmovchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Inson taraqqiy etgan sari unda mukammallikka bo‘lgan intilish oshib boraveradi. Ehtiyoj har doim uni qondirish jaryonidan oldinda bo‘ladi. Agar o‘sib boruvchi ehtiyojlar o‘z vaqtida va sifatli qondirilmas ekan, bunday vaziyatda shaxs va jamiyat o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Shuning uchun ham ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikka intilgan har qanday jamiyatda mazkur mutanosiblikni ta’minalash, manfaatlar uyg‘unligiga erishish eng ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

Mutafakkir-allomalarimizning ta’kidlashlaricha, ehtiyojlarning ko‘pligi va ularni qondirish vositalarining kamligi sabablari, odamni boshqa ongli mavjudotlar bilan birlashishga majbur qiladi. Ehtiyojlarni o‘zaro hamkorlik orqali qondirish borasida har bir odam mehnatning muayyan bir turi bilan shug‘ullanishga boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ilk mehnatning natijasini ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan tirikchilik vositalarining miqdori bilan o‘lchaydi.

Ammo, tirikchilik vositalarining o‘lchovlari bir-biriga mosligi tufayli, kishilarning mehnatga va tirikchilik vositalariga bo‘lgan ehtiyojlar ham bir xil emas. Mana shu mehnat qimmati va tirikchilik vositalariga bo‘lgan ehtiyojlarning o‘lchovli aniq belgilab olish maqsadida kishilar har ikkalasiga baho qo‘yish va uning tegishli ekvivalentlarini belgilash xususida kelishuv-murosaga keladilar. Moddiyot bilan bog‘liq ehtiyojlarning o‘lchovlarini aniqlashda muayyan darajada yengilliklar bor. Ammo, ma’naviy ehtiyojlar va ularni qondirishdagi o‘lchovlar masalasini aniqlash juda qiyin.

O‘zbek milliy qadriyatlar tizimida ma’naviy ehtiyojlar masalasi ko‘proq axloq va komil inson konsepsiysi bilan uyg‘unlikda o‘rganilgan. O‘zbek axloqshunosligida axloqning asosini hilm, afv va sabr tashkil etishi, ushbu ijtimoiy hodisa shafvat va g‘azab qo‘ziganda nafsn jilovlash ma’nolarida ham ishlatilgan.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: Qadimdan axloq ilmi ulamolari “Odamdagи axloqlar uning yaratilishida qo‘shib yaratilgan bo‘ladimi yoki kishi axloqni keyin o‘rganadimi?” degan savolga javob berishda ixtilof qilishgan. Ulardan ba’zilari: “Yaxshi bo‘lsin, yomon bo‘lsin, axloq inson yaratilgan chog‘ida qo‘shib yaratiladi. Axloqni keyin kasb qilib bo‘lmaydi”, deganlar. Boshqa bir guruh axloq ilmi ulamolari esa: “Inson tug‘ilganda hech qanday fazilat yoki razilatsiz tug‘iladi. Unda qanday xislat bo‘lsa, tug‘ilgandan keyin paydo bo‘ladi”, deganlar.

Musulmon axloq ilmi ulamolari esa: “Insonga ota-onasida bor ba’zi axloqlarning xamirturushi onasining qornida homila holatida yotgandayoq o’tadi. Alloh taolo bandani xalq qilish chog‘ida unda axloq qobiliyatini qo‘sib yaratadi. Inson tug‘ilib o‘sishi jarayonida tarbiya, muhit va odatlanish oqibatida u yoki bu axloqni o‘zida rivojlantiradi yoki yo‘qtib yuboradi”, deydilar. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. –T.: “Sharq”, 2012. 242-bet).

Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraganda, axloq, shuningdek, axloqsizlik ham har bir insonning ona qornidagi rivojlanish jarayonidayoq shakllana boshlaydi. Ammo, uning to‘liq shakllanishi asta-sekinlik bilan, insonning kamolot sari qadam tashlab borishi bilan birga yuz beradi. Insonda muayyan darajada axloqning mavjudligi va uni rivojlantirishga bo‘lgan intilishi esa har bir individning ma’naviy ehtiyoji asosida paydo bo‘ladi.

Shaxsda ma’naviy ehtiyojlarning asosini tashkil etuvchi axloq tizimining shakllanishi juda ko‘p omillarga bog‘liq. Fikrimizcha, buning eng dastlabki va eng muhim omili – tarbiyalanuvchining qanday muhitda tarbiya topayotganligi bilan bog‘liqdir. Muhit qay darajada mustahkam ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lsa, ana o‘sha holatda mazkur masalada muayyan maqsadga erishish mumkin. Bunda o‘zbek oilasi, mahallasi, qarindoshlik rishtalari, o‘qish va ish jarayonida yaratilgan ijtimoiy-ma’naviy muhit asosiy rollarni o‘ynaydi.

O‘zbek milliy tarbiya tizimida, ma’naviy ehtiyojar shakllanishi jarayonida ustuvor ahamiyatga ega masalalardan yana biri, bu – komil inson tarbiysi masalasidir. Aziziddin Nasafiy kamolotning belgisi sifatida ikki narsani asos qilib oladi. Buning biri – hamida axloq bo‘lsa, ikkinchisi – o‘z-o‘zini tanish. Shu ikki asosning bor yoki yo‘qligiga qarab u odamlarni uch qismga ajratgan. Birinchisi hamida axloqiy xislatlar bilan bezanmagan va o‘z-o‘zini tanimagan odamlar. Ikkinchisi hamida axloqiy xislatlar bilan bezangan, ammo o‘z-o‘zini tanimagan odamlar. Uchinchisi hamida axloqiy xislatlar bilan bezangan va o‘z-o‘zini tanigan odamlar. Olimning nazarida ana shu keyingi – uchinchi toifa odamlar komil insonlardir (Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Birinchi kitob. –Toshkent, “Yozuvchi”, 1996. 152-bet).

Jamiyat a’zolarida ma’naviy ehtiyojlarning shakllanishida ilm olish, bilim to‘plashga ham juda katta e’tibor berilgan. Odamlar bir-birlaridan moddiy boyligi bilan emas, balki ma’naviy boyligi darajasi bilan farq qiladilar. Insonning qadri uning ilmi, ixlosi va aqli bilan belgilanadi. Ilmlı odam har joyda aziz: “Sen qanchalik bilimdon bo‘lib, oqilona ish tutsang, seni shunchalik izzat-ikrom qilishadi”.

Vujud taraqqiyoti uchun ozuqa zarur bo‘lganidek, inson ma’naviyatining rivoji uchun ham bilim kerak. Bilim yordamidagina inson o‘z hayot yo‘lini to‘g‘ri topa oladi. Bilim inson yo‘lini yoritadi. Uning tufayli odamlar turli sifat va mushkulotlarni bartaraf etadi: “Bilimsiz uzoq va

noma'lum yo'l safariga chiqma. Bilim nuriga ega bo'lmagan odam shubhasiz, tinch-xotirjam yashay olmaydi" (Akmal Saidov. Attorshunoslik. –Toshkent.: "Sharq", 2013. 231-bet).

Mutafakkir-allomalarimiz komil inson va axloq masalasida o'ziga xos ta'limot yaratganliklarini ta'kidlash lozim. Bu ta'limotning negizini esa tariqat odobini saqlash, riyoza chekishdan qo'rmaslik, rahmdil bo'lish, halol luqma bilan kifoyalanish, saxiy bo'lish, barcha faoliyatni ilm-fan asosiga qurish kabi azaliy qadriyatlar tashkil etadi. Shu ma'noda yurtimizda o'ziga xos axloq kodeksi yaratilgan, deyishga ham ilmiy, ham amaliy asoslar bor.

Mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirish odamlar, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ular ma'naviy ehtiyojlarining qay darajada shakllantirilayotgani va qondirilayotganiga bog'liqdir. Alohida ta'kidlash kerakki, har bir jamiyatda uning o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ma'naviy hayotini tashkil etish amaliyoti mavjud.

To'g'ri, ijtimoiy rivojlanishning barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan, an'anaviy tarzda sayqallanib, xalqimiz orasida milliy qadriyatga aylanib ketgan tarbiya tizimi mavjud. Biroq, zamon va makondagi yangiliklar, ijtimoiy-siyosiy voqealar natijasida jamiyatning siyosiy mafkurasi bazisi va ustqurmasidagi revolutsion hamda evolutsion o'zgarishlar aynan shu davrga xos bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni talab etadi. Jamiyatning o'zi ham aynan shu talab asosida o'ziga xos ma'naviy ehtiyojlar tizimini yaratadi.

Har qanday jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy barqarorligi mazkur mamlakatda fuqarolar madaniy-ma'naviy ehtiyojlarining qay darajada qondirilishiga bog'liq. Buning uchun, eng avvalo, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining uyg'unligi masalasiga e'tibor berish lozim. Madaniyat va san'at durdonalarini o'zlashtirishga, undan yanada ko'proq va kengroq bahra olishga bo'lgan eng maqbul imkoniyat esa faqat mazkur masalaning xalq – jamiyat – davlat tamoyili asosidagina paydo bo'lishi mumkin. Bugun, Yangi O'zbekistonni barpo etish asosida ana shu tamoyil shakllanmoqda. Bu esa odamlarimizda sog'lom ma'naviy-madaniy ehtiyojlarning ham shakllanishida, ham qondirilishida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan ma'naviyatshunos olim A.Erkayevning qayd etishicha, ma'naviyatning inson va jamiyatning sog'lom ehtiyojlarini rag'batlantirish orqali ularning manfaatlarini himoya qilishida, o'zaro muvozanatga keltirishda uning praksiologik (praksiologiya amaliy harakat usullari samaradorligi to'g'risidagi ta'limot) mazmuni va vazifalari yana bir bor namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, insonning yuksak intilishlari ma'naviyatga, tuban istaklari ma'naviyatsizlikka aloqador. Ma'naviylik asosida quriladigan munosabatlar inson va jamiyat hayotini yengillashtiradi, insoniylik, halollik, o'zaro izzat-hurmat, ishonch, mehr-oqibat, o'zaro yordam,

jamoaviylik mustahkamlanadi. Asta-sekin ijtimoiy munosabatlar zo'ravonlikdan xalos bo'la boshlaydi. Ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarni zo'ravonlikdan xalos etish, tolerantlikni o'stirish va insonparvarlashtirish ma'naviyatning muhim praksiologik vazifalaridan biri. (Abdurahim Erkayev. Ma'naviyatshunoslik. 2-kitob. –T.: "Ma'naviyat", 2018. 74-bet).

Albatta, ma'naviy ehtiyojlar masalasi, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Uning nazariy ahamiyati mazkur holatning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rnini belgilash, millat va jamiyatni ijtimoiy-ma'naviy va mafkuraviy, g'oyaviy jihatdan poklantirish, shaxs, jamiyat, davlatning bu boradagi manfaatlarining mutanosibligiga erishishdan iborat. Amaliy ahamiyat esa, ma'naviy ehtiyojlarni shaxs va jamiyat orasida keng ma'noda shakllantirishning eng samarali va maqbul usullarini ishlab chiqish va amaldagi ro'yobiga erishishni ta'minlash bilan bog'liq hodisadir.

Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlaganimiz kabi, jamiyat ma'naviy hayotining eng muhim tomonlaridan biri ma'naviy-madaniy ehtiyojlar masalasidir. Ma'naviy hayotning asosini, uning genetik mohiyatini mazkur ehtiyojlar tashkil etadi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, davlat tomonidan ijtimoiy masalalarga e'tiborning kuchayishi bilan ma'naviy ehtiyojlar jamiyat taraqqiyotining alohida, mustaqil komponentiga aylana boradi.

Ma'lumki, o'rganayotgan mavzu doirasida madaniy va ma'naviy faoliyat hamda ma'naviy ehtiyojlar nisbatiga ham alohida to'xtalib o'tish muhimdir. Madaniy faoliyat shaxs va jamiyatning davlat va millat taraqqiyoti yo'lida olib boradigan sa'y-harakatlarini tartibga solish, muvofiqlashtirish natijasida erishiladigan holatdir.

Madaniy faoliyat tarixan hech qachon, hattoki, jamiyat va mamlakat inqirozli, bo'hronli vaziyatlarda ham insonning ana shu holatga nisbatan o'z munosabatlari, ichki his-tuyg'ularini ifoda etgan holda shakllanadigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Madaniy faoliyat jamiyat a'zolarining iste'dod, qobiliyat, qiziqishlari natijasida yuzaga keladigan mayjudlik. Uning borligi jamiyat hayotini barqarorlashtirish, iste'dodli insonlarning qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda o'z aksini ko'rsatadi.

Ayni paytda jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan yana biri ma'naviy faoliyat masalasidir. To'g'ri, hozircha madaniyatshunoslik va ma'naviyatshunoslikda ma'naviy faoliyat masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan emas. Aslida, jamiyatning taraqqiyoti, mazkur jamiyatning axloqiy me'yorlari masalasi fuqa-rolarda ma'naviy faoliyatning qay darajada faol yoki faolsizligi darajasiga bog'liqdir.

Ayniqsa, bugun butun dunyoda shiddat bilan kuchayib borayotgan, globallashuv odamlar ongi, tafakkur tarzi, ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy qarashlarini o'zgartirib yuborayotgan bir davrda ma'naviy faoliyat insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylanishi muhimdir.

Ma’naviy faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra madaniy faoliyatga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Chunki, ushbu fenomen hodisa kishilardagi axloq, insonparvarlik, adolatparvarlik kabi azaliy qadriyatlarni mustahkamlovchi kuch hisoblanadi.

Boshqacha so‘z bilan aytganda, madaniy faoliyat jamiyat hayotini yanada go‘zallashtirsa, kishilarda ular iste’dodi, qobiliyatlarini ochishga imkon bersa, ma’naviy faoliyat jamiyatni axloqiy, ijtimoiy-ma’naviy jihatdan barqarorligini ta’minlaydigan muhim omil hisoblanadi. Shu ma’noda ma’naviy faoliyatni shaxs, millat va jamiyatning ma’naviy munosabatlari, jarayonlari, aloqa va muloqotlari majmuyi, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini axloqiy jihatdan poklantirishga yo‘naltirilgan maqsad va unga erishish holati sifatida anglash mumkin.

Ma’naviy faoliyatning ratsional mag‘zini tarbiya jarayoni tashkil etadi. Xalqimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotini tarbiya, axloqni isloh qilish jarayonlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Milliy tariximizning qaysi davrini olib qaramaylik, barchasida milliy tarbiya, axloqimiz o‘sha davr xususiyatlarini e’tiborga olgan holda takomillashib, sayqallanib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, jadid bobomiz Abdulla Avloniy shunday deydi: “Insonlarga eng muhim, ziyoda sharif, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki: dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi demakdir” (Abdulla Avloniy. So‘ylasang, so‘yla, yaxshi so‘zlardin. – T.: “Ma’naviyat”, 2022. 15-bet).

Ushbu fikr tarbiya fenomenining asl maqsadini ochib bergen deyish mumkin. Gap shundaki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot dunyosida yosh-u qari bilmagan, o‘qimagan narsaning o‘zi yo‘q. Oddiy tarbiya jarayonidan to mukammal texnologiyalargacha, tirikchilik muammolarini hal etishdan jahoniy geopolitik muammolargacha – barcha-barcha narsadan xabardormiz. Ya’ni, Abdulla Avloniy qayd etganidek, hammamiz biluvchimiz, ammo bilgan narsaga amal qilish bobida esa no‘noqmiz. Axloq, tarbiya fenomeni ana o‘sha nomutanosiblikni bartaraf etuvchi vositaga aylanishi lozim. Ma’naviy faoliyat shu naqtayi nazardan har qanday mamlakat va jamiyatni mafkuraviy, g‘oyaviy tahdidlardan asrab qoluvchi muhim omilga aylanib boraveradi.

Ma’naviy-madaniy ehtiyojlarning shakllanishi va qanoatlantirilishi masalasida shu narsani aniqlash lozimki, bu jarayonda ma’naviy-madaniy mahsulotlar, qadriyatlar, asarlarni yaratish birlamchimi yoki ularni o‘zlashtirishga bo‘lgan shaxs va jamiyat ehtiyojimi? Ta’kidlash lozimki, bu o‘ta muhim masala. Mazkur savolga javob berishda, madaniyat, ma’naviyat, umuman, ehtiyojlar masalasiga munosabat bildirishda ushbu jarayonlarga qay tarzda yondashuvni aniqlab olish alohida ahamiyatga ega holatdir.

Ochiq, demokratik jamiyatda insonning o‘z iste’dodlarini namoyish eta olish ko-nikmasining paydo bo‘lishi, ularning ijtimoiylashuvi, shu jamiyat tomonidan qabul qilingan turli me’yoriy hujjatlarda aks etgan talablarga javob berish, ijtimoiy qadriyatlarga amal qilish, jamiyat va davlatdan begonalashuv holatidan qutulish jarayonlari har bir shaxsda ma’naviy ehtiyojlarga ustuvor ahamiyat berishni talab qiladi. Bu esa ma’naviy ehtiyojlarning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi.

## XULOSA

Shunday qilib, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi sharoitida madaniy-ma’naviy ehtiyojlar har qanday davlat va jamiyatni rivojlantirishning muhim, hal qiluvchi omillaridan biriga aylanib bormoqda. Bunda Sharq, xususan, Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan alloma va mutafakkirlar tomonidan bizga meros bo‘lib qolgan turli ta’limotlar, g‘oyalalar alohida o‘ringa ega.

Ularning madaniy-ma’naviy ehtiyojlar jamiyatni birlashtiruvchi, odamlarda ijtimoiylashuv kayfiyatini shakllantiruvchi kuch ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyalari bugun ham o‘z ilmiy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli davlatni barpo etishda eng muhim omillardan bo‘lgan yangi ma’naviy makon, kuchli ma’naviyatni ham aslida shaxs madaniy-ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirish asnosida yuzaga chiqarish mumkin..

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шавкат Мирзиёев. *Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – милий гоямизниң пойдеворидир*. – Тошкент, “Тасвир”. 2021.
2. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5-том. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2020.
3. Абу Наср Форобий. *Фозил одамлар шаҳри*. – Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2016.
4. Жакбаров М. *Комил инсон гоясининг тарихий-фалсафий негизлари* – Тошкент, “Тафаккур”, 2011.
5. Бируни. *Минерология: собрание сведений для познания драгоценностей*. –М., “Наука”, 1963.
6. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. *Тасаввуб ҳақида масаввур* – Тошкент, “Шарқ”, 2012.
7. Нажмиддин Комилов. *Тасаввуб. Биринчи китоб*. – Тошкент, “Ёзувчи”. 1996
8. Акмал Саидов. *Атторишунослик* – Тошкент, “Шарқ”, 2013.
9. Абдурахим Эркаев. *Маънавиятишунослик*. 2-китоб. – Тошкент, “Маънавият”, 2018.
10. Абдулла Авлоний. *Сўйласанг, сўйла, яхии сўзлардин*. – Тошкент, “Маънавият”, 2022.